

## MA`RIFATLI JAMIYAT QURISH YO`LIDA YOSHLAR O`RTASIDA MA`NAVIY-MA`RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISH USULLARI

**Obbosxonov Alimardon Akmalxon o`g`li**  
*O`zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti 3- kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ma`rifatli jamiyat qurish yo`lida yoshlar o`rtasida ma`naviy-ma`rifiy ishlarni tashkil usullari shuningdek yoshlarda vatanparvarlik, milliy o`zlikni anglash, daxldorlik hislarini shakllantirish masalalarini taxlil qilingan.*

**Kalit so`zlar:** *jamiyat, yoshlar, ma`rifat, ma`naviyat, millat, qadriyat, huquqiy madaniyat, fuqaroviy ong, daxldorlik, vatanparvarlik, milliy o`zlikni anglash.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются приоритетные задачи развития правовой и политической культуры молодежи Нового Узбекистана, а также вопросы формирования патриотизма, национальной идентичности и чувства принадлежности среди молодежи.*

**Ключевые слова:** *политическое сознание, политическая культура, общество, ценности, правовая культура, гражданское сознание, вовлеченность, осознание национальной идентичности, патриотизм.*

**Annotation:** *This article analyzes the methods of organizing spiritual and educational work among young people in order to build an enlightened society, as well as the issues of forming patriotism, national identity, and sense of belonging among young people.*

**Key words:** *society, youth, enlightenment, spirituality, nation, value, legal culture, civic consciousness, involvement, patriotism, national identity.*

### KIRISH

O`zbekistonda milliy yuksalish davrida ijtimoiy-ma`naviy jarayonlar mohiyati tubdan ijobiy tomonga o`zgardi. Endilikda, inson omilini ro`yobga chiqarish va ma`naviy takomilini ta`minlash, uning har tomonlama yuksalishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish, o`z iste`dodlari va qobiliyatlarini erkin namoyon etishga har qachongidanda ko`proq e`tibor qaratilmoqda. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, aholi turmushi va yashash muhitidagi muhim tomonlarni rivojlantirish, jamiyatda islohotlar ko`lamini yuksalishida ma`naviy-ma`rifiy ishlarni tashkil etish va uni yuksaltirish uslublarini ijtimoiy hayotga tadbiiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugun O`zbekiston Ma`rifatli jamiyat sari qadam tashlar ekan, yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning markazida inson taqdiri, ularning turmush farovonligi, ertangi kuni, baxt-saodati turganligi biz qurayotgan jamiyatning ertangi kunini yorqin ifodalaydi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev milliy yuksalish g`oyasi mohiyati borasida quyidagilarni ta`kidlaydi: “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan undovchi g`oya hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Biz ayni shu asosda xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni ta`minlash, innovatsion taraqqiyot borasida muhim qadamlarni qo`ymoqdami”

Ma'lumki, O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki kunlaridan e'tiboran shaxs, millat, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish, uni taraqqiyot tamoyillarini ro'yobga chiqarishda safarbar etuvchi kuchiga alohida e'tibor berilmoqda. Ma'naviyatga yurtimizda ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali o'zbekistonliklar tomonidan ham ma'rifiy kuch-qudrat manbai va real strategik resurs sifatida munosib baho berilgan. Mustaqillik davrida, ayniqsa milliy yuksalish davrida ma'naviyat xalqimizni tarixan davom etib kelayotgan madaniy tamaddun an'alarini tiklovchi kuch sifatida o'zini namoyon etmoqda.

Ma'naviy qadriyatlarimizni asrash va uni targ'ibot qilish ham jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ma'naviyat fan va taraqqiyot, ilmiy-ijodiy yutuqlar bilan rivojlanadi, xalqimiz tafakkuri va boy imkoniyatlari bilan hamohang holda boyib, sayqallanib boradi. Ma'naviyat va uning asosiy mezonlari xalqimiz ongida vorisiylik tarzida avloddan avlodga o'tib boradi. Ma'naviyat targ'iboti jarayonida ham ana shu maqsadlar bajarila borib, ma'rifat degan yuksak ijtimoiy hodisa bilan birgalikda olib boriladi. Milliy an'alarimiz va udumlarimiz, ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish tamoyili kuchaydi. Islom dinimizni qadrlash ma'naviyatimizni yangi ma'nolar bilan to'ldirishga olib keldi. Ulug' bobokalonlarimiz madaniy xazinasiga haqiqiy vorislik qila boshladik. Ulardan faxrlanish imkoniyatiga ega bo'ldik. Yurtimizda yashayotgan barcha millat, elat vakillarining tinch-inoq yashashi uchun sharoit yaratildi. Bundan yoshlar bahramand bo'lmoqda.

Mamlakatimiz Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Qarorqa “yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash” kabi muhim vazifalarga urg'u berildi.

Jamiyat ma'naviyat orqali yoshlarga qanday g'oya va fikrlarni taklif etsa, shunga mos ravishda ma'naviy jihatdan chiniqqan vatanparvar zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlarga ega bo'ladi. Eng muhimi shundaki, har bir jamiyatda qanday shaklda qanday maqsadda bo'lmasin har qanday yangi g'oyaga turli yangi kontseptsiyalarga nisbatan yoshlar o'z munosabatini bildiradi va aholining boshqa qatlamiga nisbatan tezroq qabul qiladi. Chunki yoshlar fiziologik va psixologik jihatdan hali shakllanish bosqichida bo'lgani uchun ularni anglab olish va e'tiqodiga aynishiga ehtiyoj katta bo'ladi.

Shuningdek yoshlar yangilikni tez ilg'ab oluvchi hamda salbiy hodisalarga tez beriluvchanlik xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Yoshlar o'zlarining ijtimoiy-ruhiy va boshqa jihatlariga ko'ra, jamiyatda tez o'zgaruvchan sharoitga moslashish qobiliyatining yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Ular jamiyatning shunday ijtimoiy guruhiga mansubki, ushbu guruh vakillarining ongi shakllanish jarayonida bo'lib, ular turli xil g'oyalar (shu jumladan buzg'unchi g'oyalarning ham) ta'siriga tez beriluvchan bo'ladilar.

Yoshlar shuningdek, o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyotning nomutanosibli holatlarini aniqroq sezadilar. Kattalar tomonidan o'ziga xos qabul qilinadigan ayrim “adolatsizlik” ko'rinishlari yoshlarning hali to'liq shakllanmagan ongiga, dunyoqarashiga kuchli ziyon etkazishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlar orasida

milliy g'urur va or-nomus bilan bog'liq ma'naviy-ruhiy holat va fazilatlar muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarni oldida haqiqatni aytishdan cho'chimaslik, soxtakorlikdan qochish, mavjud qiyinchiliklar, muammolarni ochiq-oydin bayon etish lozim. Bular ma'ruzachilarimiz, targ'ibot ishlari bilan shug'ullanuvchi barcha targ'ibot-tashviqotchilarning birinchi galdagi vazifasi hisoblanadi. Milliy yuksalish va uchinchi renessans poydevori qurilayotgan davrning qizg'in va jadal kechuvchi jarayonlari yoshlarning ma'naviy va huquqiy tarbiyasiga muhim va samarali chora-tadbirlarni uzluksiz amalgam oshirishni talab etadi. "Mamlakat va fuqarolar manfaatlarining uyg'un holatda amalga oshuvining asosiy mexanizmi qonunlar oldida oddiy fuqarodan tortib eng yuqori lavozimni egallab turgan amaldorlarga barobarligi, ularning qonunlarga so'zsiz itoat qilishi hisoblanadi. Bu tamoyilni shakllantirish O'zbekistonda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy vazifasi sifatida qaralmoqda"

Shu bilan birgalikda, bugungi jahondagi globalashuv davrida ma'lum bir salbiy ko'rinishdagi ma'naviy tahdidlar mavjudligi sharoitida yoshlar ongini mazkur ma'naviy muammolardan asrash ham muhimligini aytish joizdir. Jumladan, oily va o'quv maxsus o'quv yurtlarida ham bu vazifalar hamisha diqqat e'tiborda bo'lmog'i talab qilinadi. Shu bois oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi muassasalarda ma'naviyat va ishlari bo'yicha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, metodistlar kabi lavozimlar tizimi tashkil etildiki, ular yoshlar o'rtasida ma'naviyat va madaniyat ishlarini talabga javob beriladigan tarzda puxta olib borishlari nazarda tutilgan.

Respublikamiz milliy uksalish sharoitida, dunyo miqyosiga yanada salmoqli olamshumul integratsiyaga kirmogda, madaniy va ma'rifiy sohada ham jahon madaniy tizimida kuchli bog'lanib bormogda. Xorijiy tillarni yaxshi egallagan, iqtidorli, bilimli yoshlar jahonning nufuzli oliy o'quv yurtlariga o'qish uchun bormogdalar. Davlatimiz bu borada g'amxo'rlik ko'rsatib, iqtidorli, qobiliyatli yoshlarning iste'dodlari yuzaga chiqishi uchun barcha ishlarni qilmoqda, bu yo'lda mablag'ni ayamayapti.

Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash. Fan va texnika sohasidagi kattakatta kashfiyotlar va yutuqlar qo'lga kiritilib, hayotga tatbiq etilayotgan hozirgi davrda talaba yoshlarga ma'naviy va madaniy tarbiyani tashkil etish vazifasining mazmun va shakllariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Bu omilni hamisha e'tiborda tutish lozim bo'ladi. Shuning uchun talabayoshlarga ma'naviy va madaniy tarbiya berishda milliy qadriyatlar bilan birga umuminsoniy qadriyatlardan ham samarali foydalanish, ayni paytda, bularga umumiy taraqqiyotga xos zamonaviy yutuqlarini ham payvand qilish talab qilinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi yillarda ayrim yoshlarda millatga, Vatanga foyda keltirishni o'ylash, mustaqillikni mustahkamlashda foydali inson bo'lib etishish hissi maxsus, ilmiy asosda shakllantirilmaganligi tufayli shaxsiy manfaatni o'ylash, engil yo'llar bilan to'kis xayotga intilish hissi namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga ayrim fuqarolar orasida ma'naviy cheklanganlik, dunyoqarashning torligi, milliy odob me'yorlariga rioya qilmaslik, so'z va ish orasidagi tafovut, milliy g'urning sustligi kabi noxush ko'rinishlar uchrab turadiki, ularni birgalashib bartaraf qilish lozim.

Shunga alohida e'tibor qaratish lozimki:

• Yoshlar ijtimoiy-ma'naviy hayotiga turli tahdidlarga qarshi targ'ibot samaradorligining zaruriy tamoyillaridan biri - uning tezkorligida bo'lib, unda muayyan mintaqaviy sharoitlarni, kishilarning yosh xususiyatlarini, oliy o'qov yurtining u yoki bu muddatda hal qila olishi mumkin bo'lgan ma'naviy imkoniyatlarini hisobga olish ko'zda tutiladi.

• Diniy aqidaparastlik va boshqa yot mafkuralar eng avvalo yoshlarning ayrim qismining g'oyaviy-siyosiy tafakkur darajasiga tayanadi. Yot mafkura va buzg'unchi ta'sirlar bilan kurash ma'naviy targ'ibotda loqaydlik kayfiyatlarining har qanday ko'rinishlariga murosa bo'lmaslikni taqozo qiladi. Chunki ma'naviy tahdid o'zining ko'rinishi va salmog'ga ko'ra murakkablik kasb etadi. Yoshlarimiz tahdidlar mavjud targ'ibotning jozibadorligi zamirida nima mavjudligini doimo his etishi lozim lozim. Ya'ni ularning asosida doimiy rejalarini o'zgartirib turuvchi aqidaparastlik targ'iboti amaliyoti yotganini, ularning an'anaviy fundamentalistik g'oyalarni zamonaviy tarzda jonlantirib turishini tushunishlari zarur. Shu bilan birga ayrim yoshlar har xil yot g'oyalarni xolis axborot manbai sifatida qabul qilayotganliklarini ham aytib o'tish zarur.

O'zbekistonda ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash yo'lida Yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish maqsadlarini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

□ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy ta'lim Vazirligining buyruq va ma'lumotlarini shuningdek «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan vazifalarni talabalarga, murabbiylarga va professor-o'qituvchilarga o'z vaqtida yetkazishni, tashkil etish;

□ ustoz-murabbiylar tizimini takomillashtirib borish tizimini yo'lga qo'yish, o'tkazilayotgan "Ma'naviyat soatlari"ni samarali o'tkazilishini ta'minlab borish, «Ma'naviyat o'quvlari» ning mazmunli o'tkazilishini tashkil etish;

□ talaba-yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi masalalariga oid ilmiy-uslubiy va amaliy adabiyotlar, qo'llanmalar tayyorlab borish va ularni chop ettirish ishlarini amalga oshirish hamda tarbiyaviy ahamiyatga molik adabiyotlar bilan ta'minlash;

□ talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar zaminida, mustaqil O'zbekiston Respublikasining haqiqiy fuqarolari etib shakllantirish, Vatan oldidagi fuqarolik va farzandlik vazifalarini sitqidildan bajarishga tayyorlashda ilg'or targ'ibot texnologiyalaridan foydalanish;

□ talaba yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning bilim olishlar va sog'lom hayot kechirishlari uchun barcha qulayliklar yaratish, talabalar ijtimoiy-siyosiy va huquqiy ongini rivojlantirish, ularda tanqidiy va taxliliy fikrlarini kengaytirish lozim. Biz, bu yo'lda sergaklikni yo'qotmaslik hamda xotirjamlikka berilmasligimiz oldimizga qo'ygan vazifalarning bajarilishi uchun dasturi amal vazifasini o'taydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Mirziyoev Sh. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq. [www.uza.uz](http://www.uza.uz).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi 92-sonli «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. <https://uza.uz/uz/category/documents>.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqi. 2020 yil 23 sentyabr <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/23/bmt/>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. <https://uznews.uz/posts/46663>

5. Ochilova, B. (2020). Fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(50). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/5062](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5062)